



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI


ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**

## “BOBURNOMA”NING USLUB XUSUSIYATLARI STYLE FEATURES OF “BABURNAMA”

Muhammadzokirova Mohinur Muhtorjon qizi

Tayanch doktorant,

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

E-mail: [nuriddinsoliyev499@gmail.com](mailto:nuriddinsoliyev499@gmail.com)

ORCID: 0009-0008-4741-0361

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./QVWS2021](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./QVWS2021)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asariga xos uslubiy xususiyatlar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda voqealarning qat’iy xronologik izchillikda bayon qilinishi asarning tarixiylik va manbaviy ishonchliligini ta’minlovchi omil sifatida izohlanadi. Muallif nutqida jumalarning qisqa, lo‘nda va aniq qurilishi nafaqat mazmunning ravshanligini kuchaytirishi, balki Boburning behalovat, doimiy harakat va kurashda kechgan umrguzaronligini ham uslubiy jihatdan aks ettirgani asoslab beriladi. Shuningdek, har bir so‘zning rostgo‘yona va xolis bitilgani, muallifning voqelikka obyektiv munosabati “Boburnoma” uslubining muhim belgilaridan biri sifatida baholanadi.

**Kalit so‘zlar:** “Boburnoma”, uslub, janr, xronologiya, qisqalik va aniqlik, ilmiy-amali tahlil.

**Annotation.** This article systematically analyzes the stylistic features characteristic of Zahiriddin Muhammad Babur’s “Baburnama”. In the study, the narration of events in a strict chronological sequence is interpreted as a factor ensuring the historical and source reliability of the work. It is substantiated that the short, concise, and precise construction of sentences in the author’s speech not only enhances the clarity of the content, but also stylistically reflects Babur’s restless, constantly moving, and struggling life. Also, the truthfulness and impartiality of each word, the author’s objective attitude to reality are evaluated as one of the important features of the style of “Baburnama”.

**Keywords:** “Baburnama”, style, genre, chronology, brevity and accuracy, scientific and practical analysis.

Uslub “poetikaning muhim kategoriyalaridan biri; badiiy asarning u yoki bu tarzda shakli qurilishini belgilovchi umumiy prinsipi. U antropologik, ya’ni ijodkor shaxsi bilan bog‘liq kategoriya sanalib, uning ijodiy individualligini belgilaydi” [Quronov va boshqalar, 2013:339]. Ushbu tushuncha adabiyotshunoslikda keng va tor ma’nolarda qo‘llaniladi: davr uslubi (adabiyot taraqqiyotining ma’lum bir davriga xos muhim jihatlar), ijodkor uslubi (Navoiy, Bobur, Vosifiy uslubi) va badiiy asar uslubi kabi.

Adabiyotshunoslikda uslub tushunchasi bilan uzviy bog'liq holda metod termini ham mavjud bo'lib, ular aynan olinganda bir xil narsa emas. Rus adabiyotshunos olimi L. Timofeyevning fikricha: “Metodda yozuvchini o'ziga yaqin boshqa yozuvchilar bilan bog'laydigan umumiy jihatlar ko'zga tashlanadi, uslubda esa ularni bir-biridan ajratib turadigan tomonlar: uning shaxsiy tajribasi, iste'dodi, nutq ohangi va boshqalar namoyon bo'ladi” [Timofeyev, 1971:411]. Chunonchi uslub muallif shaxsiyatini aks ettiruvchi g'oyaviy-estetik xususiyatlar jamlanmasidir. Buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoyning quyidagi fikrlari ham uslub tushunchasi borasidagi fikrlarimizni yanada oydinlashtiradi: “Yangi avtorning badiiy asarini ko'rganda yoki o'qiganda bizning ko'nglimizda paydo bo'ladigan asosiy savol hamisha shunday: “Qani, sen qanaqa odamsan? Men bilgan odamlardan qanday farqing bor? Hayotimiz... to'g'risida menga nima yangi gap ayta olasan?” [Qodirov, 1973:142]. Shuningdek, uslub muallif shaxsiyatining badiiy ifodasi bo'lishi bilan birga, badiiy asarning janr va kompozitsiya xususiyatlarini ham ma'lum darajada o'zida aks ettiradi.

“Boburnoma” uslubida, asosan, to'rt xususiyat yaqqol ko'zga tashlanadi:

1. Xronologiya;
2. Jumalarning qisqa va aniqligi;
3. “Har bir so'zning rostini” bitilganligi;
4. Ilmiy-amaliy tahlil.

“Boburnoma”ning asosiy yozilish prinsipi – voqealarning vaqt tartibida berilishidir. Muallif o'z hayoti davomida kechgan voqealarni yilma-yil, oyma-oy, ba'zan kunma-kun va kunning qismlari darajasida aniq bayon etadi. Ta'kidlash joizki, xronologik uslub asarning janr tabiatidan bevosita kelib chiqadi, ya'ni memuar janrining o'zi voqealarni vaqt tartibida qayd etilishini talab qiladi.

Bobur siyosiy voqealar, yurishlar, tabiat tasvirlari, kechinmalar, insoniy munosabatlarni ham vaqtga bog'liq holda tasvirlaydi. Xususan, “Rajab oyi, shanba kuni Andijon azimati bila Samarqanddin chiqtuk. Bu navbat Samarqand shahrida yuz kun podshohliq qildim” [Bobur, 2020:78]. “Uch-to'rt kundin keyin Qanbar Ali aytqon so'zlaridin mutavahhim bo'lub, qochib Andijong'a kirdi” [Bobur, 2020:152]. “Ushbu qishliqta Boysung'ur mirzoning ishi filjumla taraqqiyda edi...” [Bobur, 2020:58] kabi parchalarni “Boburnoma”da vaqt kompozitsiyaning asosiy o'qi ekanligi va voqealar vaqt o'qi bo'ylab tabiiy tarzda ketma-ket bayon etilganligining isboti sifatida keltirish mumkin.

“Boburnoma”da tasvirlanayotgan har bir lavha qisqa, aniq iboralar orqali yoritiladi. Agar keltirilgan izohlar muallif nazdida qaysidir jihatdan xomroq, bo'sh bo'lib ko'rinsa yangi dalillar va so'z iboralar tasvir tugalligini ta'minlaydi. Ayrim hollarda Bobur nasrning ifoda imkoniyatlarini torroq bilib, bayonning badiiy-ta'sirchanligini oshirish maqsadida mavzuga oid she'riy misra, bayt, ruboiylar keltiradi. Ko'pincha, “Boburnoma”da nasriy matnning o'zi muallif fikrini to'raligicha bayon qilishga qodir” [Qudratullayev, 1998:43] hisoblanadi.



Asarda jumjalarning qisqa va aniq berilganligining asosiy sabablari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: birinchidan, asardagi qisqa va aniq jumalarda muallifning behalovat umrguzaronligi o'z aksini topadi. Chunonchi Bobur juda yoshligida – 12 yoshida Farg'ona taxtini egalladi. Xuddi shu ondan boshlab Boburning hayot yo'li sinovlar yo'liga aylandi. Go'yo taqdir uni shohlik tojiga emas, balki iztirob va kurash maydoniga chorlagandek edi. Dastlab beklar isyoni, qarindoshlari, yaqinlari xiyonati va Shayboniyxon bosimiga qarshi turishiga to'g'ri kelgan bo'lsa, keyinchalik Kobulni egallab, nisbatan mustahkam davlat barpo etadi. Panipat jangidagi g'alabasi sharofati ila u Hindiston zaminida qudratli Boburiylar saltanatiga asos soladi. Mirzo Boburning o'zi ham o'zining mashaqqatli umr yo'li yoritilmish “Boburnoma”da shunday deydi: “Bu ramazonni Hasht Bihisht bog'ida o'tkarildi. Har tarovihni g'usl bila o'taldi. O'n bir yoshimdin beri ikki ramazon iydini payopay bir yerda qilg'on emas erdim. O'tgan ramazon iydi Agrada bo'lub edi” [Bobur, 2020].

Ikkinchidan, muallif vaqt tanqisligi holatida ham esdaliklarini muntazam ravishda davom ettirishga intiladi.

Ma'lumki, memuarlar sujetini tashkil etuvchi hayotiy ziddiyatlar tayyor holda mavjud bo'lmaydi. Voqealar yilma-yil bitib boriladi. “Boburnoma ham aniq reja asosida yozilmaganligi shubhasiz. Asardagi ayrim lavhalar muallifning asar yozilayotgan paytda o'ta bandligi, jang-u jadallar bilan mashg'ul ekanligini ko'rsatadi. Shunga qaramay, muallif imkom qadar har bir kunni, har bir muhim voqeani asarda aks ettirishga intilganini ham sezish qiyin emas:

“Chorshanba kuni oyning yigirma ikkisida Behraning ulug'larini va chavdarilarini tilab, bu yurtta to'rt yuz ming shohruhiy moli amon qaror berilib, muhassillar tayin qilildi...

Panjanba sabohi bir gulbodom to'pchoq peshkash qilib, mulozamat qildilar. Arzg'a yettikim, cherik eli Behra elig'a besarliq va dastandozliqlar qiladur. Kishilar yivorib, besarliq qilg'on elning ba'zisini yasoqqa yetkurub, ba'zisini burnini teshib, o'rdudin evrurdilar.

Odina kuni Xushob elidin arzadosht keldi. Shoh Hasan va Shoh Shujo' arg'un ta'yin bo'ldikim. Xushobg'a borg'ay.

Shanba kuni oyning yigirma beshida Shoh Hasanni Xushobg'a yiborildi” [Bobur, 2020:322].

Quyida keltirilgan nisbatan qisqa parchada esa bir vaqtning o'zida uchta mavzu ilgari suriladi:

“Tonglasi ko'chub, Kotlang bila Maqomning orasig'a tushuldi. Shoh Mansurning kishisi keldi. Xisrav ko'kaldosh va Ahmadiy parvonachini bir pora kishi bila uruq o'trusig'a yiborildi. Seshanba kuni oyning o'n to'rtida Maqomg'a tushganda uruq kelib qo'shuldi” [Bobur, 2020:316].

Fikrimizcha, muallif vaqt tanqisligi va voqealar tezkorligi sharoitida bo'lib o'tgan voqealarni asarda aks ettirmay qolmaslikka intilgan ko'rinadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning shohlik mavqei va uning tabiatiga xos haqgo'ylik va to'g'rilik “Boburnoma”da hech hadiksiramadan faqat haqiqatni bayon etilganligida o'z aksini topadi. Asarda ham ta'kidlanganidek:

“Bu bitilganlardin g'araz shikoyat emas, rost hikoyaturkim, bitibturmen. Bu mastur bo'lg'onlardin maqsud o'zning ta'rifi emas, bayoni voqeyi bu edikim, tahrir etibturmen. Chun bu tarixda andoq iltizom qililibturkim, har so'zning rostini bitilgay va bar ishning bayoni voqeyini tahrir etilgay. Lojaram ota-og'adin har yaxshiliq va yamonligkim shoye edi, tahrir qildim va qarindosh va begonadin har ayb va hurarkim bayoni voqe edi, tahrir ayladim. O'qug'uvchi ma'zur tutsun, eshitguvchi taarruz maqomidin o'tsun” [Bobur, 2020:283].

Muallif voqealarni bezab ko'rsatishdan, o'zini ideallashtirishdan yoki kamchiliklarini yashirishdan tiyiladi. Aksincha, ayrim hollarda mag'lubiyatlarini, siyosiy xatolarini va shaxsiy zaif tomonlarini ham ochiq tan oladi: “Chun bu dag'dag'a bor edikim, qirq yoshqa bir yildin ozroq qolib edi, ifrot bila ichilur edi” [Bobur, 2020:357].

Asarning 1500-1501-yillar voqealari bayonida keltirilgan Saripul jangi tafsilotlari ham fikrimizning yorqin isbotidir:

“Olimizdag'ilarni necha navbat zo'rlab kelganda urub yondurduk. Ilgarimiz ham zo'rladi, keyin evrulgan kishi ham kelib bizning tug'qa o'q qo'ya kirishtilar. Ilgaridin, keyindin zo'rladilar. Bizning elni tebrattilar” [Bobur, 2020:125].

Ushbu jang tasviri Boburning tarixchi va adib sifatidagi halolligini ko'rsatadi: u g'alaba bo'lmagan joyda ham haqiqatni yashirmaydi, voqealarni bo'rtirmaydi, balki o'quvchiga real tarixiy manzarani taqdim etadi.

Muallif asarda shaxslar tavsifida ham rostgo'ylik tamoyiliga asoslanadi. Xususan, u yaqin kishilarini ham faqat maqtamaydi, balki ularning kamchiliklarini ham ochiq ko'rsatadi. Masalan, ayrim qarindoshlari yoki lashkarboshilarining sustkashligi, mas'uliyatsizligi, xiyonatga moyilligi haqida ochiq yozadi. O'ziga yaqin bo'lgan amirlarning ayrimlarini tanqid qiladi, ularning noto'g'ri qarorlari yoki fe'l-atvoridagi kamchiliklar voqealarning salbiy kechishiga sabab bo'lganini qayd etadi:

“Sulton Husayn mirzoning bu xatlari mujibi noumidlik bo'ldi. Ne uchunkim, Temurbekning yurtida bu tarixda andin uluqroq podshoh ham yosh va ham viloyat va ham cherik bila yo'q edi... Sulton Husayn mirzodek Temurbek oyinig'a o'lturg'on ulug' podshoh g'animning ustiga yurumakni demay, yer berkitmakni desa, el va ulusqa ne umidvorliq qolg'ay?” [Bobur, 2020:171].

Dushmanlari haqida esa adolatli fikr yuritishga harakat qiladi. Raqib sarkardalarning jasorati, tadbirkorligi yoki siyosiy salohiyatini tan olishdan tortinmaydi:

“O'zbekning urushta bir uluq hunari uslibu to'lg'amadur, hech urushi to'lg'amasiz bo'lmas. Yan bir budurkim, ilgari va keyin bek va navkar tamom o'q



qo'yub jilovluq keladurlar, yong'onda ham parishon yonmay jilovluq yonadurlar” [Bobur, 2020:125].

Shunday qilib, asarda subyektiv munosabat mavjud bo'lsa-da, umumiy ruhda haqiqatga sodiqlik yetakchi o'rinni egallaydi.

Asarda muallif nafaqat shoh, shoir, adib, tarixnavis sifatida, balki hayvonot va nabotot olimi, adabiyotshunos, tilshunos, zukko tahlilchi va tabiat mo'jizasining daqiq kuzatuvchisi sifatida ham gavdalanadi. “Boburnoma”da keltirilgan aksariyat ilmiy ma'lumotlar bayonining o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, muallif o'z ko'zi bilan ko'rgan joy, hayvon yoki o'simlikni “ko'rdim” deydi, ko'rmaganini to'ppa-to'g'ri “ko'rmadim” deydi. Boshqalardan eshitgan ilmiy ma'lumotlarni esa “derlar”, “andoq rivoyat qilurlarkim”, “andoq dedilarkim”, “bo'lur emish” iboralari yordamida izohlaydi: “Har Kayla daraxti bir qatla o'qbar berur emish” [Bobur, 2020:407].

Shu bilan birga asarda keltirilgan ilmiy ma'lumotlar qiyosiy tahlil asosida yanada aniqlashtiriladi va mukammallikka yetkaziladi. Quyidagi Hindiston mevalaridan biri bo'lgan keyla ya'ni bananga berilgan ta'rif muallif tomonidan qiyosiy tahlil asosida ilmiy mukammallikka yetkazilgan ma'lumotlardan biri desak hech mubolag'a bo'lmaydi:

“Yana kayladur, arab mavz der. Daraxti xeyli baland emas, balki daraxt deb ham bo'lmas. Giyoh bila daraxt orasida bir nimadur. Bargi amon qaroning bargiga mushobihdur, vale kaylaning bargining uzun lug'i ikqi qari bo'lur, vassilig'I bir qarig'a yovushur, o'rtasida yurakdek bir shox chiqar, g'unchasi bu shoxda bo'lur va uluq g'unchasi qo'y yuragi va'zliqdur...” [Bobur, 2020:407].

Ilmiy ma'lumotlar bayonining yana bir e'tiborga molik jihati shundaki, muallif mavjud fikrlarni yuksak odob yuzasidan birdan inkor etmay, ilmiy fakt keltiradi. Xulosani esa o'quvchiga qoldiradi:

“Yana har girini oltmish bo'lubturlar, har birini pul debturlarkim, bir kecha-kunduz uch ming olti yuz pul bo'lg'ay. Yana har bir pul miqdorini oltmish qatla ko'zni yumub ochquncha debturlarkim, kecha-kunduz ikki yuz o'n olti ming ko'zni yumub ochquncha bo'lg'ay” [Bobur, 2020:416].

Shunday qilib asarda keltirilgan ilmiy ma'lumotlar bayoni muallifning yuksak tafakkur madaniyati va tadqiqot uslubiga egaligini yaqqol namoyon etadi. Avvalo, muallif turli hududlar, sharoitlar, insonlar va jarayonlarni o'zaro solishtirish orqali faktlarning aniqligini kuchaytiradi hamda bayon etilayotgan ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlaydi. Shuningdek, ko'plab masalalarda mavjud qarashlarni qat'iy rad etmaydi, balki mavjud qarashlar bayoni davomida o'z kuzatuvlari natijalarini keltiradi. Shaxsiy munosabatini esa majburlovchi hukm sifatida emas, balki mulohaza tarzida taqdim etadi.

“Boburnoma”da muallif ba'zan voqea-hodisalarni tasvirlash jarayonida to'satdan asosiy mavzuga aloqasi bo'lmagan hodisa, voqea va holatlarni ham bayon eta beradi. Bu muallif uslubining o'ziga xosligini ta'minlovchi xususiyatlardan biridir. Shuningdek, ushbu holat asarning janr tabiati bilan ham

uzviy bog‘liq ekanligini alohida ta’kidlash zarur. Ma’lumki, “Boburnoma” qat’iy reja asosida yozilmagan, memuar-kundalik xarakteridagi asardir. Muallif voqealarni hayot oqimi qanday bo‘lsa, shundayligicha bayon etadi. Shu sababli xotira oqimi asosida siyosiy voqea ichida tabiat tasviri, jang tasvirida shaxsiy esdalik, tarixiy bayonda etnografik mulohaza kutilmaganda paydo bo‘lib qoladi.

### Adabiyotlar:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.:Abdulla Qodiriy. 2004. – 242 b.
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.:Akademnashr. 2013. – 408 b.
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.:O‘zbekiston. 2002. - 560 b.
4. Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аёзий. Тарихи Рашидий. - Т.: Ўзбекистон, 2011.- 240 б.
5. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – T.:Sharq. 2002. – 264 b.
6. Mo‘siddinova O‘. Adabiy asarda sujet masalasi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(5), 2023. – b. 995.
7. Болтабоев Ҳ. «Наср ва услуб» - Тошкент, «Фан». 1992. - 104 б.
8. Z. M. Bobur. Boburnoma. – T.:Ijod press. 2020. – 574 b.
9. Adizova I. Bobur tafakkurida mavjlangan daryo. Monografiya. – T.:Bookmany print. 2023, - 156 b.
10. Бобир Заҳириддин Муҳаммад. Асарлар. Уч жилдлик. 1-жилд. Девон. Тошкент: Бадиий адабиёт, 1965. -235 б.
- 11.U. Rasulova. Hozirgi adabiy jarayon. - Toshkent: “Akademnashr”, 2023. –195 b.
12. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. - Toshkent: “O‘qituvchi”, 2005. - 272 b.
13. To‘rayeva B. Adabiyot nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2020. – 141 b.
14. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 264 b.
15. Z. M. Bobur. Boburnoma. Tabdil. – T.: “O‘qituvchi”, 2008. -286 b.
16. Hasanov H. Sayyoh olimlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 1981. – 261 b.
17. To‘rayeva B., Yaxyayeva N. Mikromakonni ifodalashda badiiy detalning adabiy-estetik vazifasi.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 4(8).
18. Тимофеев. Л.И. Основы теории литературы. –М.: Просвещение, 1971. – С.411.
19. Qudratullayev H. “Boburnoma”ning tarixiy-adabiy va uslubiy tahlili (Navoiy, Bobur, Xondamir va Vosifiy nasrining qiyosiy tahlili asosida)”. F.f.d. dissertatsiya. – Toshkent, 1998. – 355 b.